

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИ ВА ОИЛА ГАМКОРЛИГИ

*Salaxudinova Marxabxon Abdullayorovna*  
*Asaka pedagogika kolleji o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari va oila hamkorligining usullari, ushbu hamkorlikning yosh avlod ta’lim-tarbiyasidagi ahamiyati xususidagi fikrlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** hamkorlik, maktabgacha ta’lim, oila, guruh majlislari, shaxsiy suhbatlar, ochiq eshiklar kuni.

**Аннотация:** В данной статье даны положения о методах сотрудничества дошкольных образовательных организаций и семьи, о значении этого сотрудничества в воспитании подрастающего поколения.

**Ключевые слова:** сотрудничество, дошкольное образование, семья, групповые встречи, личные беседы, День открытых дверей.

**Annotation:** This article provides insights into the methods of preschool and family collaboration, the importance of this collaboration in the education of the younger generation.

**Keywords:** cooperation, pre-school education, family, group meetings, personal conversations, open day.

### KIRISH

Bola tarbiyasi o‘ta murakkab va ma’suliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o‘z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma’lumotlardan xabardor bo‘lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko‘rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o‘z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir. Bolalarni intizomga o‘rgatish oila mustahkamligiga asos bo‘ladi. Islom shu ma’noda ota-onalarni o‘z farzandlariga sog‘lom tarbiya berishga rag‘batlantiradi. Hadisi sharifda “Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring” deb ta’kidlangan.

Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg‘ulariga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo‘lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o‘ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o’tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: “...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo‘lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash

negizida davom etadi". Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lish lozim.

Darhaqiqat, shaxs shakllanishida oilani roli katta. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat farzandlar namunali oilalarda kamol topadilar. Shuning uchun ham oilada sog'lom muhitni vujudga keltirish va uni mustahkamlash umum davlat ahamiyatga molik masaladir. Chunki ijtimoiy hayotda yuz beradigan barcha o'zgarishlar, yani undagi yetuk va kamchiliklar, murakkabliklar va ziddiyatlar oilada o'z aksini topadi. Shunga ko'ra oila va oilaviy tarbiya masalalari har doim ham dolzarb muaamo bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

«Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman», — deya fikr bildirgan edi davlatimiz rahbari.

Ota – onalarning shakllanib, kamol topib borayotgan farzandga ko'rsatadigan ta'siri juda katta. Ularning bolaga nisbatan beg'araz muhabbat talabchanlik bilan qo'shib olib boradigan g'amxo'rlikida namoyon bo'ladi. Muhabbat har qanday yaxshilik, mehribonlik va yorqinlikning ijodkoridir”

Bolaga oilada yaxshi tarbiya berish bola hayotining daslabki davrlaridan boshlaboq, ota-onalarning bolaga nisbatan beg'araz muhabbat talabchanlik bilan qo'shib olib boradigan g'amxo'rlikida namoyon bo'ladi. Muhabbat har qanday yaxshilik, mehribonlik va yorqinlikning ijodkoridir”

Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onalarning shaxsiy ishigina bo'lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Ma'lumki shaxsning qadiryati uning jamiyatdagi tutgan o'rni bilan belgilanib, ko'p jihatdan uning tarbiyasiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli ota-onalarning tarbiyachisi hisoblanadi.

Shuningdek, ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar – deb, belgilangan -O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida.

Farzandni barkamol va ma'naviy yetuk qilib o'stirish uchun, eng avvalo ota – onalarning o'zi yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Bunday muhim va istiqbolli muammolarni hal qilishda mamlakatimizda ota – onalarga yordam ko'rsatish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etilgan. Bu borada maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan ota – onalar hamkorligining ahamiyati katta.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorligi maktabgacha ta'lim sifatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik bolalarning ta'lim olishi, farovonligi va rivojlanishida muhim ahamiyat

kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ota-onalarva, mahalliy hamjamiyat bilan o'zaro munosabatlarning turli shakllarini amalga oshirishi mumkin:

- bolalar rivojlanishining dolzarb masalalari bo'yicha ota-onalarning malakalarini rivojlantirish va takomillashtirish (seminar, ota-onalar klubi, trening, maslahat, konferentsiya, davra suhbati, pedagogik mehmonxonalar va boshqalar);
- muntazam ravishda muloqot (kommunikatsiya)ni ta'minlash (ma'lumotlarning maxfyligini ta'minlagan holda pedagoglarning ota-onalar bilan online va ofine uchrashuv va yig'ilishlarni o'tkazishi, elektron xabarlar almashishi, bolaning rivojlanishi haqida ma'lumot berishi va boshqalar);
- ota-onalarni guruh, yoki maktabgacha ta'lim tashkilotiga ko'ngillilik faoliyatiga jalb etish (rivojlantiruvchi muhitni yaratishda ishtirok etish; xavfsiz muhitni ta'minlash; o'yinlar tashkil etish; qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish; ko'rgazmalarни bezash, mashg'ulot, bayram va tadbirlarni tashkil etish va ularda birgalikda qatnashish);
- ota-onalarga uyda bolaning o'qishni davom ettirishida (tashkil etishda) ko'maklashish (topshiriqlar haqida ma'lumot berish, resurslar bilan ta'minlash, bolaning rivojlanishi va ta'lim olishini kuzatish, o'quv dasturi doirasida bolalar loyihalarida ishtirok etish va boshqalar);
- maktabgacha ta'lim tashkilotiga oid qarorlar qabul qilishda ishtirok etish (kuzatuv kengashi va ota-onalar qo'mitasi bilan ishslash, ularning faoliyati to'g'risida ota-onalarni xabardor qilish, umumiyligi va guruhlarning ota-onalar yig'ilishlarida qatnashish, maktabgacha ta'lim tashkilotining yangi dasturlarini yaratish va ularni amalga oshirishda ishtirok etish, bolaning qiziqishlariga qarab maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'shimcha xizmatlarni tanlash);
- bolalarni tarbiyalash va rivojlanirishda mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish (maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishda mahalliy hamjamiyat resurslaridan foydalanish, hududdagi muzeylar, istirohat bog'lari, hunarmandlar ustaxonalari va boshqa diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurish, mahalliy hokimlik yetakchilarini bilan uchrashuvlar tashkil etish, ularni guruhlarga va ota-onalar ishtirokidagi tadbirlarga taklif qilish, ochiq eshiklar kuni va bayramlar tashkil etish)

### ASOSIY QISM

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ota-onalar bilan o'zaro munosabatlari turli shakllar orqali amalga oshiriladi. Bularni an'anaviy va noan'anaviy shakllarga ajratishimiz mumkin. An'anaviy shakllar o'n yildan ortiq vaqtadan beri mavjud va quyidagi guruhlarga bo'lingan:

kollektiv - ota-onalar yig'ilishlari (har ikkala guruh yig'ilishlari yiliga 3-4 marta o'tkaziladi va yil boshida va oxirida barcha o'quvchilarning ota-onalari bilan umumiy bo'lib), guruh maslahatlashuvlari, konferentiylar;

individual— individual maslahatlashuvlar, suhbatlar; stendlar, ekranlar, ko‘rgazmalar, fotosuratlar, ochiq eshiklar kuni kabilar kiradi.

Noana’naviy guruhga esa axborot va tahliliy; dam olish; kognitiv; vizual axborot shakllarini kiritish mumkin.

Axborot va tahliliy shakllar ota-onalarning qiziqishlari, so‘rovlarini aniqlashga, o‘qituvchilar, ota-onalar va bolalar o‘rtasida hissiy aloqa o‘rnatishga qaratilgan. Anketalardan o‘qituvchilar mакtabgacha yoshdagi bolalarning xususiyatlarini, bolaning nimani yoqtirishini, yoqtirmasligini, uning afzalliklarini, bolani qanday nomlashni o‘rganadilar. Bu shuningdek, so‘rovnama, testlar, anketalar, "Pochta qutisi", ota-onalar o‘zlarini qiziqtirgan savollarni qo‘yishi mumkin bo‘lgan ma'lumot savatlarini o‘z ichiga oladi.

Dam olish shakllari- bu birgalikda dam olish tadbirlari, bayramlar, ko‘rgazmalar. Ular o‘qituvchilar va ota-onalar, ota-onalar va bolalar o‘rtasida iliq norasmiy, ishonchli munosabatlar, hissiy aloqalarni o‘rnatish uchun mo‘ljallangan. Dam olish guruhda hissiy qulaylikni yaratishga imkon beradi. Ota-onalar muloqotga ko‘proq ochiq bo‘lishadi. Dam olish tadbirlari turli bayramlarni o‘z ichiga oladi, masalan, "Yangi yil kechasi", "Onalar kuni", "Hosil bayrami", "Ota-onalar bilan sport bayrami", "Oilaviy teatrлar" tashkil etish mumkin. Ushbu tadbirlarda ota-onalar mакtabgacha ta’lim tashkilotining mehmonlari emas, balki ishtirokchilardir. Ular o‘ynashadi, qo‘shiqlar kuylashadi, she'r o‘qiydilar, o‘zlarining to‘plamlarini, uy-ro‘zg‘or buyumlarini, mukofotlarini va hokazolarni olib kelishadi. Shuningdek, "Yarmarka" o‘yinlari, "Yangi yil archasini bezang", tanlovlari, chiqindi materiallardan bolalar uchun o‘yinchoqlar yasash va boshqa shu kabi qiziqarli tadbirlarda ishtirok etishlari mumkinlar. Ota-onalar va bolalar ijodiy vazifalarni bajaradilar "Yosh usta", "Yaxshi uy bekasi". Ota-onalar va mакtabgacha yoshdagi bolalarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish ijobiydir, masalan, "Mening oilamning sevimli oshpazlik retseptlari", "Teatr festivallari", "Ijodiy ustaxonalar", "Ijod quvonchi" ko‘rgazmalari va boshqalar.

Asosiy rol noan'anaviy shakldagi uchrashuvlar, guruh maslahatlashuvlariga tegishli. O‘qituvchilar ularni tashkil etish va o‘tkazishga ijodiy yondashadilar, ko‘pincha mashhur teleko‘rsatuvlarga tayanadilar. "KVN", "Pedagogik mo‘jizalar maydoni", "Pedagogik ish", "Nima, qayerda?", "Davra suhbat", "Tok-shou", "Ishonch telefon", "Viktorinalar" va boshqalar shular jumlasidandir. Shuningdek, ota-onalarning ko‘nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida treninglar, amaliy mashg‘ulotlar, suhbatlar o‘tkazilishi maqsadga muvofiq.

Mакtabgacha ta’lim tashkilotining ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishslash shakllarini mohirlik bilan qo‘sib olib borish, keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalshda ijobjiy natijalarga erishish mumkin. Mакtabgacha ta’lim tashkilotining xodimlarini ota-onalar

va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllaridan bir qanchasini keltiramiz:

Ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash. Ilg‘or pedagogik tajribalarni ko‘rsatishicha, ishning bu turi katta ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachi油a va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o‘rganib ularni o‘zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarimiz tajribasida ota-onalar bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlarning turli xil shakllari aniqlangan;

- oilaga tarbiyachining borishi;
- ota-onalar uchun suhbat o‘tkazish, ularga maslahatlar berish;
- ota-onalarning MTT hayoti bilan tanishishlari.
- ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar.

Bular ota-onalarning guruhiy va umumiyl majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari tarzida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

**Ko‘rsatmali ishlar.** Ishning bu turi ko‘rgazmali, bolalarni ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, pedagogik axborot stendlari, ota-onalar uchun kutubxona oilaviy tarbiyaning barcha masalari bo‘yicha materiallar solingan papka, ota-onaga pedagogik ta’lim berish va boshqalarini ko‘rsatish mumkin.



Maktabgacha  
ta’lim  
tashkilotining  
oila bilan  
hamkorlik ish  
shakllari

Tarbiyachi bolani oilasiga borishi kamida yiliga 2 marta

Umumiyl majlislar yiliga 2 marta

Ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar: ertalabki qabulda,  
kechki kuzatish paytida

Ochiq eshiklar kuni yiliga 1-2 marta

Guruhiy majlislar yil choragida 1 marta

**Tarbiyachining oilani borib ko‘rishi.** Bola yashab turgan oilani o‘rganish ota-onalar bilan yaqin aloqa o‘rnatish va ularga yordam, maslahatlar berishning samarali yo‘llaridan biridir. Tarbiyachi oilaga tekshiruvchi sifatida emas maslahatchi, do‘st va bola tarbiyasiga yordam beruvchi shaxs sifatida boradi. Tarbiyachining oilaga borishidan asosiy maqsad bola yashayotgan sharoitni ko‘rish va zarur bo‘lsa ota-onalarga yordam ko‘rsatishdir. Oilani borib ko‘rish va ota-onalar bilan suhbatlashish katta pedagogik odat bilan o‘tkazilishi kerak. Ota-onalar bilan suhbatda bolaning eng yaxshi tomonlarini ochib berilsa, ota-onalarning tarbiyachiga bo‘lgan hurmati va ishonchi ortadi. Tarbiyachi bolaning uyida ko‘rganlarini qayd qilish bilan bir qatorda ularni tahlil qiladi, ota-onalar majlislarida oilaviy tarbiyatagi ijobiy va salbiy tomonlar haqida gapiradi. Ularga o‘zining maslahatlarini beradi. Oila tarbiyasidagi ijobiy ishlarni ota-onalar uchun tashkil etilgan testlarda aks ettirish ham mumkin. Oilani borib ko‘rgandagi taassurotlarini tarbiyaviy ishlarni hisobga olish ustuniga yozib qo‘yishi kerak Oilaga kamida yiliga 2 marta borib ko‘riladi tarbiyachining oilaga borishi ota-onalarda pedagogik madaniyatni oshiradi.

Ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar. Oila bilan shaxsan ishslashning eng keng tarqalgan usuli sifatida qo‘llanadigan suhbat bolalarni ertalab qabul qilish va kechqurun kuzatish vaqtida o‘tkazilishi mumkin. Ular tarbiyachilar bilan ota-onalarni bir-biri bilan yaqinroq tanishishlariga yordam beradi. Tarbiyachining ota-onalar bilan ertalab o‘tkazadigan suhbatlari qisqa muddatli bo‘ladi, shuningdek uning yaqinlarida yaxshi kayfiyat, tarbiyachiga ishonch hissi paydo bo‘lishida katta ahamiyatga ega.

Ota-onalardan bola kechqurun qanday kayfiyatda bo‘lganini, qanday uxlaganini bola o‘zini qanday sezishni so‘rash foydali. Tarbiyachi ota-onalarga bolalarni bugun guruhda nimalar kutishi xaqida qisqacha axborot beradi. Bu narsa bolani kayfiyatini ko‘taradi, ota-onani xotirjam qiladi. Bolani guruhda kunni qanday o‘tkazgani, nimalar bilan mashg‘ul bo‘lgani, o‘zini qanday tutgani, nimaga e’tibor berish kerakligini haqida axborot beradi. Ota-onalarni bola tarbiyasida yo‘l qo‘ygan biror kamchilik va xatosini tahlil qilish uchun ular bilan yanada mufassal suhbat o‘tqazish zarurati tug‘ilganda vaziyatni tuzatish uchun malakali maslahat hamda tavsiya berish kerak bo‘lganda maslahatlar o‘tkaziladi .

**Guruhiy maslahatlar va majlislar.** Agar tarbiyachiga aynan bir masala bir nechta ota onani qiziqtirayotgani ma’lum bo‘lsa, ular uchun umumiyl maslahatlar tashkil etadi. Pedagog maslahatga oldindan tayyorlanadi: zarur adabyotlarni va ko‘satlari materiallarni tanlaydi. Maslahat o‘tkaziladigan aniq vaqt haqida ota-onalarini ogohlantiradi. Bunday maslahatlar onda sonda va muntazam o‘tkazilishi mumkin. Ota-onalarning guruhiy majlislari zaruryatiga qarab yil choragida bir marta o‘tkaziladi. Bunday majlislardan maqsad ota onalarni aniq pedagogik masalalar bilan tanishtirishdir. Ularda mazkur guruhdagi bolalarni tarbiyalash masalalari muhokama

qilinadi, guruh ishi bilan bog‘liq tashkiliy masalalar qarab chiqiladi, ota-onalarning bayramda ishtirok etishlari haqida gapiriladi.

Majlislar mavzusini belgilashda va unga tayyorgarlik ko‘rishda ota-onalari taklif etilayotgan bolalarni yoshini hisobga olish zarur. Shu munosabat bilan o‘yin yoki mehnat faoliyatlari haqida masalalar ko‘proq o‘rin egallash mumkin. Ota-onalarning umumiy majlisi maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamma tarbiyalanuvchilarining ota-onalari uchun yiliga ikki marta o‘tkaziladi. Ularni maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori, hamshira, tarbiyachilar ishtirokida tashkil etiladi. Umumiylar majlislarda ta’lim-tarbiyaviy ishning yakunlari muhokama qilinadi. Birinchi umumiylar majlis o‘quv yili boshida o‘tkazilib, unda direktor ota-onalarni maktabgacha ta’lim tashkilotining yillik ish rejasi bilan tanishtiradi. Rejaning oila bilan bog‘liq qismiga aniq to‘xtalib o‘tish lozim. Ikkinci umumiylar majlis o‘quv yili oxirida o‘tkaziladi. Bunda maktabgacha ta’lim tashkilotining o‘tgan yildagi ish yakunlari haqida ma’lumot beriladi. Bolalar tashkilotida tarbiyalanuvchilarining yashash sharoitlarni yaxshilashda ota-onalarning qo‘sghan xissalari ta’kidlab o‘tiladi. Umumiylar majlislarda bolalar tashkiloti jamoasi qanchalik katta va murakkab ishni bajarishni va bu ishda qanday yordam berish kerakligini ishonchli tarzda ko‘rsatish kerak. Majlislarda pedagog ma’ruzasining hajmi 20-25 minut ga mo‘ljallanadi.

### **Maktabgacha ta’lim tashkilotining ota-onalar bilan ishining yillik rejasi.**

#### **Umumiylar majlislar.**

MTTning ota-onalar bilan ishining yillik rejasi

Ota-onalar bilan axloqiy va jismoniy tarbiya masalalarida olib boriladigan ish.

«Bolalarning tabiat qo‘ynidagi mehnati – axloqiy tarbiyaning vositasidir» degan mavzuga alohida e’tibor berish.

1. Ota-onalarni MTT ishiga yaqinlashtirish, ularni MTTdagi tarbiyaviy ishlar bilan keng tanishtirish.

Quyidagilar ota-onalar e’tiborida bo‘lmog‘i kerak:

- a) navbatchilikni tashkil etish;
- b) shanbaliklar uyushtirish;
- v) ochiq mashg‘ulotlarda qatnashish;
- g) guruh majlislarida qatnashish;
- d) individual suhbatlar, maslahatlar.

2. Oilalarni borib ko‘rilganda bolalar mehnat faoliyatlariga alohida e’tibor berish (bola yoshiga mos holda).

Umumiylar majlislar

1. MTT va oilada bolaning axloqiy tarbiyasi. Mavzu bo‘yicha ota-onalar chiqishlarini tayyorlash.

2. Bola tarbiyasida ota-onalar obro‘yi. Ma’ruza mavzusi bo‘yicha tayyorlangan ota-onalar chiqishlari.

3. a) Yoz paytida mtm hovlisida tarbiyaviy ishlari (bunda mehnat tarbiyasi masalalariga alohida e’tibor beriladi).

b) Yoz sharoitida sog‘lomlashtirish tadbirdi (shifokor axboroti).

v) Bolalarni ekskursiyaga olib chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan tashkiliy masalalar.

4. a) Bolalar bilan o‘tkazilgan yozgi sog‘lomlashtirish ishlarining yakuni.

b) Ota-onalar qo‘mitasi ishining hisoboti.

### XULOSA

Ota-onalar bilan maktabgacha ta’lim tashkiloti birlgilidagi faoliyatini tashkil etish va uning mazmuni maktabgacha ta’lim tashkilotidagi sharoitlarga bog‘liqdir. Birgalikdagi faoliyat kerakli darajada amalga oshiriladigan joyda o‘zaro yordam, bir-birini tushunish, topshirilgan ishga javobgarlik holati vujudga keladi. Ota-onalar maktabgacha ta’lim tashkiloti maydonini ko‘kalamzorlashtirish, xonalarni qish mavsumiga taylorlash, sog‘lomlashtirish ishlarini o‘tkazishda yordam ko‘rsatishlari, bolalarga bayram kastyumlari tayyorlashda, bolalarni sayyohatga kuzatib borishda ishtirok etishlari mumkin. Agar ota-onalar orasida fotosuratchilar, tikuvchilar, rassomlar bor bo‘lsa, ular maktabgacha ta’lim tashkilotiga bevosita yordam ko‘rsatishlari kerak. Ota-onalarning ishi ijtimoiy xarakterga ega va ixtiyoriylikka asoslangan bo‘lishi kerak. Birgalikdagi ishni to‘g‘ri tashkil etish uchun yillik reja tuziladi va uni ko‘rinadigan joyga ilib qo‘yiladi. Ota-onalardan qaysi kunlari maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelib yordam berishlari mumkinligini so‘rash lozim.



Ochiq eshiklar kuni ota-onalar bilan ishslashning samarali shaklidir. Ochiq eshiklar kuni jamoaning o‘z kalendar yillik rejasiga bo‘yicha har bir yosh guruhning ma’lum rejimi bo‘yicha odatdagagi mehnat kunidir. Bunday kunlarni yiliga 1-2 marta o‘tkazish tavsiya qilinadi. Ochiq eshiklar kunini o‘tkazish zarur. Ya’ni ota-onalarga

bolalarni jismoniy chiniqtirish, ovqatlantirish, mashg‘ulotning borishi sayr haqida ko‘pgina narsalarni ko‘rish imkoniyatiga ega ekanliklari haqida ma’lum qilinadi.

Ota-onalarga esa quyidagilar eslatiladi: bolalar bilan oddiy munosabatda bo‘lish, ularning faoliyatida imkon boricha ishtirok etish, tarbiyachiga xalaqit bermaslik, farzandiga tanbeh bermaslik (mashg‘ulotlar o‘tkazilayotganda).

Ochiq eshiklar kunini o‘tkazishga tayyorlanayotganda fotosuratchini taklif etish, keyinchalik esa «Ota-onalar bizning mehmonimiz», «Bizda ochiq eshiklar kuni» mavzusida foto ko‘rgazma tashkil etish mumkin. Bu ochiq eshiklar kunida qatnasha olmagan ota-onalarda qiziqish uyg‘otadi.

Ota-onalar qo‘mitasi va jamoachilik bilan ishlash. Har bir mакtabgacha ta’lim tashkilotisida ota-onalar qo‘mitasi bo‘lib, ota-onalar qo‘mitasi ishning vazifalari va mazmuni uning huquqlari, hisoboti va ish yuritishi Ota-onalar qo‘mitasi haqidagi “Nizom” da aks etiriladi. Bu qo‘mita ota-onalarning umumiylajlisida bir yil muddatga saylanadi. Uning tarkibiga har bir guruhdan 1-2 vakil kiradi. Ular orasidan rais va kotib saylanadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari va pedagogik jamoa ota-onalar qo‘mitasiga faol tarbiya masalalarida uzoq bo‘lmagan kishilarni tarafdir. Tarbiyachilar u yoki bu oila qanday ota-onalar qo‘mitasiga a’zo bo‘lganda so‘ng Maktabgacha ta’lim tashkilotiga ota yoki ona qanday yordam berishi mumkin, ular jamoa tarbiyasi hayoti bilan qiziqishadimi, mакtabgacha ta’lim tashkilotida bo‘lish kerakligi haqidagi mashg‘ulotlarni tartibini kuzatish, sayr qilishda ishtirok etish haqidagi taklifga labbay deb javob berishadimi? Degan savollarga javob berishlari kerak.

Ota-onalar qo‘mitasini unda ishlashni xohlovchi ota-onalardan ham saylash mumkin. Bunday ota-onalar odatda, samarali qiziqib ishlaydilar. Ota-onalar qo‘mitasi ota-onalarning umumiylajlisiga hisob beradi, unga avval qabul qilingan qarorlarning bajarilishi haqida hisobot beradi. Ota-onalarning umumiylajlisiga hisob beradi. Ota-onalar qo‘mitasining faoliyati mакtabgacha ta’lim tashkilotining yillik rejasiga mos holda rejali ravishda olib borilishi kerak. Qo‘mita ishini direktor boshqarib boradi. Uning majlislari kamida ikki oyda bir marta o‘tkazilishi kerak.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, oila — bu mehr va baxt qo‘rg‘oni. Oilab ekan, farzand degan bebaho ne’mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma’naviyat bor. Oilaviy baxt — eng ulug‘ saodatdir.

Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg‘ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo‘lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o‘sib-unayotgan bolalarimizga bog‘liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo‘lga qo‘yilar ekan, o‘sha oila, o‘sha mahalla gullab-yashnaydi.

«Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar oilang bilan sen baxtli bo‘lsang, baxtliman deyishga haqqing bor. Faqat oilam emas, xalqim baxtli bo‘lsa men o‘zimni baxtli deb bilaman», — deya ta’kidlagan edilar prezident Shavkat Mirziyoyev.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 30. 04. 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun davlat o‘quv dasturi /Takomillashtirilgan ikkinchi nashr/. Toshkent. - 2022.
3. Alqarov I.Sh., Mamatqulova R., Norqulov H.D. Oila tarbiyasi asoslari. – T.: “G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi”, 2009.
4. To‘raqulova I.X. Sog‘lom oila ma’naviyatining buzg‘unchi g‘oyalarga kurashishdagi o‘rni // “Ta’lim muammolari”. IMJ. –T.: 2012. - №3.
5. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N. A’zamova. Maktabgacha pedagogika. Darslik. Toshkent.-2019.
6. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi bo‘yicha uslubiy qo‘llanmaga qarang// Maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini individuallashtirish. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan inklyuziyasi//b. 44//Toshkent//2020.
7. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi bo‘yicha uslubiy qo‘llanmani qarang//Oila va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik//Birinchi nashr//28-bet//Toshkent //2020.